



**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SIYMOSI MINIATYURA VA  
RANGTASVIR ASARLARIDA  
(Samarqand davlat muzey – qo‘riqxonasi jamlanmasi asosida)**

**Mavlonova Dildora Azamovna,**  
*Samarqand davlat muzey qo‘riqxonasi  
Doimiy va ko‘chma ko‘rgazmalar bo‘limi yetakchi mutaxassisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606331>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Samarqand davlat muzey – qo‘riqxonasi jamlanmasida saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur siymosining miniatyura va rangtasvir asarlaridagi tasvirlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Boburning turli rangtasvir asarlarida hukmdor, shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazi haqida so‘z yuritiladi. Maqolada ushbu tasviriy san‘at asarlarining tarixi va ularning ma‘naviy ahamiyati to‘g‘risida ma‘lumot berib o‘tiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Mumtoz adabiyot, miniatyura, rangtasvir, obraz, portret, tasviriy san‘at.*

***Annotation.** This article analyzes the image of Zahiriddin Muhammad Babur in miniatures and paintings. Also, Babur's image as a ruler, poet and statesman is discussed in various paintings. The article provides information about the history of these works of art and their spiritual significance.*

***Key words:** Classical literature, miniature, painting, image, portrait, fine art.*

Zahiriddin Muhammad Bobur – nafaqat yirik davlat arbobi, harbiy qo‘mondon va buyuk shoir, balki madaniyat hamda san‘at taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan temuriy hukmdor sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan sharq madaniyatining buyuk namoyondalaridan biridir. Uning hayoti va faoliyati tarixiy manbalarda, xususan tasviriy san‘atda ham keng yoritilgan.

Boburiylar davrida kitobat va miniatyura san‘ati yuksak darajada taraqqiy etdi. Bu davrda fors, hind va mahalliy an‘analar uyg‘unlashib, o‘ziga xos miniatyura maktabi shakllandi. Boburiy hukmdorlar san‘atga alohida e‘tibor qaratishgan va ular himoyasida ko‘plab shohona miniatyuralar yaratilgan. Boburning shaxsiy hayoti, uning harbiy yurishlari va saroydagi hayoti aks etgan miniatyuralar xususan Boburnoma asari uchun yaratilgan miniatyuralarda ko‘zga tashlanadi.

Boburnoma asari nafaqat adabiy va tarixiy yodgorlik, balki tasviriy san‘at durdonasi sifatida ham e‘tiborga molikdir. Ushbu asarga ishlangan miniatyuralar Boburning yirik tarixiy shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Boburning o‘z davrida nafaqat adabiyot va davlat boshqaruvida, balki tasviriy san‘at va estetik qadriyatlarda ham chuqur iz qoldirganini uning miniatyura va rangtasvir asarlarida uchraydigan siymosi yaqqol tasdiqlaydi.

Bobur siymosi miniatyuralarda mohirlik bilan tasvirlangan bo‘lib, uning ma‘rifatparvarlik ruhi va ijodiy faoliyati namoyon bo‘ladi.



Miniatyuralarda Bobur siymosi ko‘pincha u hokimiyat boshida turgan donishmand hukmdor, jasur qo‘mondon va ilm-ma‘rifat homiysi sifatida tasvirlangan.

Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasining rangtasvir fondida Bobur siymosi aks ettirilgan o‘nga yaqin rangtasvir va miniatyura asarlari saqlanadi. Ulardan rassomlar Ra‘no Habib hamda N. Prashenok mo‘yqalamiga mansub bo‘lgan “Bobur” portreti rangtasvir asarlari bo‘lsa, qolgan asarlar Boburiylar davriga oid bo‘lgan miniatyuralardan ko‘chirilgan nusxalari hisoblanadi.

N.Prashenok tomonidan chizilgan “Bobur” portreti akvarel bilan ishlangan bo‘lib, o‘lchami 70x50 sm. Asarda Zahiriddin Muhammad Boburning badiiy tasviri aks etgan. Unda Boburning an‘anaviy kiyimi va tarixiy qiyofasi ifodalangan. Zahiriddin Muhammad Boburning boshida salla, egnida chopon kiygan holda tasvirlangan. [5, B. 44]

Muzey fondiga qabul qilingan asarlarda biri – bu Ra‘no Habib tasvirlagan “Bobur” portretidir. Ushbu asarda Zahiriddin Muhammad Boburning an‘anaviy tarixiy qiyofasi tasvirlangan. Boburning yuzidagi ifoda, kiyim-kechagi va umumiy uslub uning shaxsiyati va davr ruhiyatini aks ettirishga yo‘naltirilgan. Mazkur asar muzey fondiga “qoniqarli” deb baholanib qabul qilingan. [5, B. 7]

Miniatyuralarni o‘rganib ulardan nusxa ko‘chirishda Mixail Voronskiy samarali ijod qilgan. Uning muzey fondida saqlanayotgan “Bog‘dagi bazm” asari 1982 yil muzey buyurtmasiga asosan qayta tiklab tayyorlangan. “Bog‘dagi bazm” miniatyurasida tabiat bag‘ridagi tantanali yig‘in-bazm tasvirlangan. Asar sharqona miniatyura uslubida chizilgan bo‘lib, yorqin ranglar bilan ajralib turadi. Ushbu tasvirlarda saroy ahli, she‘riyat va musiqa muxlislari hamda tabiat manzaralari aks etadi. [5]

Muallifi noma‘lum “Bobur bolalari davrasida” asari qog‘ozga guash bo‘yog‘i bilan ishlangan bo‘lib, o‘lchami 89x67 sm. Ushbu asarda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z bolalari bilan birgalikda tasvirlangan. Asarning mavzusi oilaviy muhitni, Bobur va uning farzandlari o‘rtasidagi munosabatni aks ettiradi. [5, B. 198]

Muzey fondida saqlanayotgan asarlardan yana biri miniatyuradan ko‘chirma uslubida ishlangan “Bobur” portretidir. Mazkur asar Zahiriddin Muhammad Boburning miniatyura uslubidagi portreti bo‘lib, uning tarixiy qiyofasini aks ettiradi. Muallifi noma‘lum ushbu asarga rang-baranglik va an‘anaviy sharqona uslub berilgan.

Rangtasvir asarlarida Bobur siymosi portretlar orqali tasvirlangan. Uning portretlari Sharq an‘analariga xos nozik usulda yaratilgan. Portretlarda Bobur idrokli va kuchli shaxs sifatida tasvirlangan. Uning ko‘zlari o‘tkir, nigohida hayotga muhabbat tuyg‘ulari aks etadi. Ko‘p hollarda Bobur tabiat qo‘ynida, adabiyotga sho‘ng‘igan yoki askarlari bilan birga jang maydonida tasvirlanadi.

Rangtasvir san‘atida Bobur siymosi ko‘pincha Hindiston Mug‘ullar imperiyasining tasviriy yodgorliklari tarkibida uchraydi. Rangtasvir asarlari faqat badiiy go‘zallikni emas, balki Boburning siyosiy va madaniy mavqegini ham aks



ettiradi. Ushbu asarlarda Boburning aql-zakovati va harbiy kuch-qudratini ifodalash maqsad qilingan.

Masalan, Bobur portretlari ko‘pincha uning o‘ziga xos liboslari, bosh kiyimi va qurollari bilan tasvirlanadi. Bu tasvirlar orqali nafaqat uning tashqi ko‘rinishi, balki ichki dunyosi, hokimiyatga bo‘lgan munosabati va san‘atga mehr-muhabbati ham aks etgan. Bobur portretlarida tabiat manzaralari, gul va daraxtlar ko‘p uchraydi, bu esa uning tabiatni sevuvchi shoir sifatidagi obrazini yanada boyitadi. Bobur siymosi miniatyura va rangtasvirda nafaqat tarixiy, balki ma‘naviy ahamiyatga ham ega. Unga bag‘ishlangan tasviriy san‘at asarlari Sharq san‘atining o‘ziga xos xazinasiga aylanib, o‘sha davr madaniyati va estetik qarashlarini aks ettiradi.

Bobur siymosi tasviriy san‘at orqali asrlar osha yashab kelmoqda. Bugungi kunda bu asarlar nafaqat tarixiy voqelikni, balki milliy o‘zlik va madaniy merosni ham yodga soladi. Bobur obrazining san‘atdagi talqini shaxsiyatining ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatib, o‘z davri va zamonasidan o‘zib ketgan buyuk shaxs sifatida tanitadi.

Xulosa qilib aytganda, Bobur siymosi miniatyura va rangtasvir san‘atida turli ko‘rinishlarda aks ettirilgan bo‘lib, uning shaxsiyati, davlatchilik faoliyati va ijodiy merosi haqida keng tasavvur uyg‘otadi. Bobur siymosining miniatyura va rangtasvir asarlarida o‘z aksini topishi uning madaniy va badiiy merosini boyitadi. Ushbu asarlar orqali biz nafaqat buyuk hukmdor va shoirning siymosini, balki uning shaxsiyatidagi chuqur insoniylikni ham ko‘rishimiz mumkin. Bobur obrazining san‘atdagi talqinlari uning tarixiy ahamiyatini yanada teranroq anglashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aliyev. B. Boburiylar davri san‘ati. Toshkent. 2005 y.
2. Erkinov. A. Boburiylar davri tasviriy san‘ati va uning taraqqiyoti. Samarqand. 2015 y.
3. Mirzayev. U. Tasviriy san‘at va miniatyura an‘analari. Toshkent. 2008 y.
4. Toshxo‘jayev. Sh. Boburiylar davri madaniyati va san‘ati. Toshkent. 2011y.
5. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 3, 29,27,37-sonli fond kirim kitoblari.